

**MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Yo'lbarsov Abdullajon To'lanboy o'g'li***Qoraqolpog'iston Respublikasi**"KATTA DO'ST" nodavlat ta'lim muassasasi treneri va yuristi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi zamon ta'lim tizimining asosiy talablariga javob beradigan va matematika o'qitish metodlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar, sifatli o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *matematika, didaktika, ta'lim-tarbiya, metodika, dars, tarbiyaviy vazifalar, mustaqil ish, ma'ruza.*

Har bir mamlakatning turli sohasida erishilayotgan yutuqlar, istiqboldagi rejalarning amalga oshishi ham bevosita tayyorlanayotgan kadrlarning bilim va salohiyatiga bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Buning uchun malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kadrlar tayyorlash masalasiga alohida to'xtalib "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" ekanligini ta'kidlab o'tdi[1]. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir[2]. Ushbu tizim O'zbekistonda sharoitida to'la amal qilib, 1997 yil 29 avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" qabul qilinib, bu tegishli qonun asosida faoliyat yuritib boshladi. Avvalo, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunining asosiy maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. O'zbekiston Respublikasida hamma sohalarni rivojlantirish kadrlar salohiyatiga bog'liqligi keyingi yillardagi ta'limdagi islohotlarda ham ko'rinmoqda. Jumladan, yangi taxrirda qabul qilingan ta'lim to'g'ridagi qonun orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida malakali kadrlarni tayyorlash orqali iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko'rsatish va servis sohasini kengaytirish bilan birgalikda aholining bandlik darajasi hamda real daromadlarini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishlar deb qaraladi[3]. O'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi



avlod shakllantirida albatta maktabning o'rne muhimdir. Bu masalaga Prezident Shavkat Mirziyoyev alohida to'xtalib o'tib quyidagilarni ta'kidladi. "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi.

Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"[4]. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitish jarayonida foydalaniladigan pedagogik dasturiy vositalarni taxlil etish shuni ko'rsatadiki, ular o'qituvchilarning pedagogik talablariga to'laqonli javob bera olmaydi. Shuning uchun o'qitishning an'anaviy shakl va usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishga ma'lum bir yangilik sifatida ba'zi bir metodik o'zgarishlarni olib kirish lozim. Bu esa o'z navbatida o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda uzluksiz ta'lim ta'lim tizimida 80 ga yaqin innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanilmoqda. Ushbu ishda ana shu ish muammolarni xal qilish yo'llari va usullarini o'rganib, bo'lajak matematika o'qituvchilari kasbiy tayyorgarliklarining mazmunini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish zarurati borligini ko'rsatadi. O'quvchilar bilan xar bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Xar birini shu darsning turli bosqichlarida o'zlashtirish mumkin. Xar bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materiali o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini o'rgansak, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqlik o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi.

Matematika o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol topishida o'quv fani sifatida keng imkoniyatlarga ega. U o'quvchi tafakkurini rivojlantirib, ularning aqlini peshlaydi, uni tartibga soladi, o'quvchilarda maqsadga yo'nalganlik, mantiqiy fikrlash, topqirlik xislatlarini shakllantira boradi. Shunday qilib, matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o'quv-tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Darhaqiqat, mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan



ishlar, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Shuningdek, matematik kechalar va viktorinalar.- matematika kechalarini matematika to'garagining hisoboti tariqasida, shuningdek o'quvchilar hisoblashlarni yozma va og'zaki hollarini o'rganib olganlaridan keyin o'tkazish mumkin.

Uning maqsadi o'quvchilarning matematikadan bilimlarini amalda tadbiiq qilish qobiliyatlari, og'zaki va yozma, tez hisoblash ko'nikmalari, fazoviy tasavvurlarini hisobga olishdan iboratdir. Matematik kechalarni matematika to'garagining hisoboti xarakterida o'tkazish mumkin. Kechaning maqsadi o'quvchilarning matematikadan bilim malakalari, nazariyani amalda tadbiiq qilish qobiliyatlari, og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini, fazoviy tasavvurlari, geometrik tushunchalari va boshqalarni hisobga olishdan iboratdir. Matematika sohasida yoziladigan ilmiy-uslubiy ishlarning mazmunli, qiziqarli, qisqa va tushunarli bayon qilinishi, albatta, muallifning bilimi va mahoratiga bog'liq. Bunday mahorat - uning bayon qilinayotgan sohani qanchalik darajada bilishiga, u faoliyat yuritayotgan "Ilmiy maktab" ga, taqlid qiladigan ishlariga bevosita bog'liqdir [5]. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini kichik mavzularga to'g'ri taqsimlashga bog'lik. Unda o'quvchilarning mustaqilligini xosil qilish, xususiy misollarni ko'rib chiqish, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustaxkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta'minlash kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlash, shuningdek, hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash mumkin bo'ladi. Matematika darslarida AKT dan foydalanish uchun avvalo kompyuter dasturlari va ulardan foydalanish yo'llarini bilib olish zarur. Bu esa kompyuter dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki kompyuterni qo'llash orqali ularning ijodiy ko'nikmalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, masala o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishning predmeti sifatida muhim rol o'ynaydi, chunki unda o'quvchilar muayyan qiyinchilikka duch keladi va muammoli vaziyatni hal etishga bilimi, kuchi, iqtidori jalb etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 20 sentyabr. №189 (6883).
2. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent., 1997 y., 11-12-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son